

QADIMGI DAVR URBANIZATSIYA JARAYONLARI TARIXI
(JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)

Allamuratov Jamshid Yuldashovich

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 1-kurs magistranti

jamshidallamuratov89@gmail.com

T.X.Norqobilov

Ilmiy rahbar: t.f.f.d, dots

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi davr urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari Janubiy O‘zbekiston, xususan, qadimgi Baqtriya hududi misolida ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Surxondaryo vohasi va unga tutash hududlarda dehqonchilik, sun‘iy sug‘orish tizimlarining rivojlanishi, hunarmandchilik va savdo aloqalarining kengayishi ilk shaharlarning vujudga kelishi hamda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashishida muhim omil bo‘lgan. Shu bilan birga, Qiziltepa, Kuchuktepa, Bandixon, Talashqon va boshqa arxeologik yodgorliklar qadimgi Baqtriyada shaharsozlik madaniyati yuksak darajada rivojlanganligini tasdiqlaydi. Tadqiqot yozma manbalar hamda arxeologik topilmalar asosida Janubiy O‘zbekiston hududida qadimgi urbanizatsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi va ushbu hudud Markaziy Osiyoda ilk shahar madaniyati shakllangan muhim tarixiy markazlardan biri bo‘lganligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit soʻzlar: Urbanizatsiya, Qadimgi Baqtriya, Janubiy Oʻzbekiston, Shaharsozlik, Arxeologik yodgorliklar, Surxondaryo vohasi, Sugʻorma dehqonchilik, Ilk shaharlar, Hunarmandchilik, Tarixiy manbalar.

Abstract: This article analyzes the formation and development stages of urbanization processes in the ancient period using the example of Southern Uzbekistan, particularly the territory of ancient Bactria. The research findings indicate that the development of agriculture, artificial irrigation systems, handicrafts, and trade relations in the Surkhandarya oasis and adjacent regions played a significant role in the emergence of the first cities and the acceleration of urbanization processes. At the same time, archaeological sites such as Kiziltepa, Kuchuktepa, Bandikhan, Talashkan, and others confirm the high level of urban culture in ancient Bactria. Based on written historical sources and archaeological findings, the study reveals the distinctive features of ancient urbanization processes in Southern Uzbekistan and scientifically substantiates that this region was one of the major historical centers where the earliest urban civilization in Central Asia was formed.

Keywords: Urbanization, Ancient Bactria, Southern Uzbekistan, Urban Development, Archaeological Sites, Surkhandarya Oasis, Irrigated Agriculture, Early Cities, Handicrafts, Historical Sources.

Аннотация: В данной статье проанализированы процессы формирования и развития урбанизации в древний период на примере Южного Узбекистана, в частности территории древней Бактрии. Результаты исследования показали, что развитие земледелия, систем искусственного орошения, ремесленного производства и торговых связей в Сурхандарьинском оазисе и прилегающих территориях сыграло важную роль в возникновении первых городов и ускорении процессов урбанизации. Наряду с этим археологические памятники Кызылтепа, Кучуктепа, Бандихан, Талашкан и другие подтверждают высокий уровень развития градостроительной культуры древней Бактрии. На основе письменных исторических источников и

археологических находок в исследовании раскрываются особенности процессов древней урбанизации на территории Южного Узбекистана и научно обосновывается, что данный регион являлся одним из важнейших исторических центров формирования ранней городской цивилизации Центральной Азии.

Ключевые слова: Урбанизация, Древняя Бактрия, Южный Узбекистан, Градостроительство, Археологические памятники, Сурхандарьинский оазис, Орошаемое земледелие, Ранние города, Ремесленное производство, Исторические источники.

KIRISH

Bugungi kunda qadimgi davr urbanizatsiya jarayonlarini o'rganish tarix fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Janubiy O'zbekiston hududida ilk shaharlarning shakllanishi, ularning rivojlanish bosqichlari hamda qadimgi davlatlar taraqqiyotidagi o'rnini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Arxeologik qazilmalar va yozma tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, qadimgi Baqtriya hududi Markaziy Osiyoda urbanizatsiya jarayonlari erta shakllangan tarixiy markazlardan biri bo'lib, bu yerda dehqonchilik, sun'iy sug'orish, hunarmandchilik va savdo munosabatlarining rivojlanishi ilk shahar madaniyatining vujudga kelishiga mustahkam zamin yaratgan. Urbanizatsiya jarayoni esa nafaqat shaharlar sonining ortishi, balki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotning muhim ko'rsatkichi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Janubiy O'zbekiston hududida joylashgan Qiziltepa, Bandixon, Talashqon, Sho'rtepa va boshqa arxeologik yodgorliklar qadimgi Baqtriya shaharsozlik madaniyatining yuksak darajada rivojlanganligini tasdiqlaydi. Ushbu yodgorliklarda aniqlangan turar joylar, mudofaa inshootlari, sug'orish tizimlari hamda hunarmandchilik izlari urbanizatsiya jarayonlarining bosqichma-bosqich rivojlanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, "Avesto", yunon-rim mualliflarining asarlari hamda arxeologik tadqiqotlar natijalari Janubiy O'zbekiston hududining qadimgi shahar madaniyati

taraqqiyotidagi o'rnini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi. Shu bois qadimgi urbanizatsiya jarayonlarini kompleks o'rganish tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Dolzarlighi

Qadimgi davr urbanizatsiya jarayonlarini Janubiy O'zbekiston misolida o'rganish hududda ilk shaharlarning shakllanishi, qadimgi davlatlarning rivojlanishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillarini ilmiy asosda yoritish imkonini beradi. Ayniqsa, so'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan yangi yodgorliklar urbanizatsiya tarixiga oid mavjud ilmiy qarashlarni yanada boyitmoqda. Shu sababli, Janubiy O'zbekiston hududidagi urbanizatsiya jarayonlarini tarixiy manbalar va arxeologik ma'lumotlar asosida tahlil qilish bugungi tarixshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Maqsadi

Maqolaning asosiy maqsadi qadimgi davr urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini Janubiy O'zbekiston misolida tahlil qilish, qadimgi Baqtriya hududida ilk shaharlarning vujudga kelishiga ta'sir etgan omillarni aniqlash hamda yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar asosida ushbu hududning Markaziy Osiyo urbanizatsiyasi tarixidagi o'rnini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat.

MATERIALLAR VA USULLAR

Qadimgi davr urbanizatsiya jarayonlarini Janubiy O'zbekiston misolida o'rganishda tarixiy yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar natijalari hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalarini "Avesto", Bihistun va Naqshi Rostam bitiklari, Gerodot, Ktesiy, Kvint Kursiy Ruf, Arrian va Strabon asarlarida keltirilgan ma'lumotlar tashkil etdi. Mazkur manbalar qadimgi Baqtriyaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti, shuningdek, ilk shaharlarning shakllanish jarayonlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi¹. Tadqiqot davomida Janubiy

¹ Asqarov A. *O'zbekiston hududida ilk shaharlar va davlatchilik tarixi*. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 56–76.

O'zbekistonning qadimgi Baqtriya hududida joylashgan Qiziltepa, Bandixon, Talashqon, Beshqo'ton, Sho'rtepa, Qizilcha va Jondavlat kabi arxeologik yodgorliklar to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu yodgorliklarda aniqlangan qal'alar, mudofaa devorlari, turar joy majmualari, xo'jalik binolari hamda sug'orish tizimlari qadimgi urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanganligini ko'rsatuvchi muhim dalillar sifatida baholandi. Ayniqsa, Surxondaryo vohasida aniqlangan yodgorliklar Baqtriyaning yirik siyosiy va iqtisodiy markazlardan biri bo'lganligini tasdiqlaydi².

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tahliliy, manbashunoslik va arxeologik materiallarni kompleks tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Urbanizatsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar sifatida sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, daryo vohalarining o'zlashtirilishi, hunarmandchilik va savdo aloqalarining kengayishi, shuningdek, qadimgi davlat boshqaruv tizimining shakllanishi o'rganildi. Baqtriyaning Surxon, Balxob, Vaxsh, Panj, Qunduz va Qashqadaryo vohalarini qamrab olgan hududlari urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishida muhim o'rin tutganligi tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar asosida tahlil qilindi. Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalarining o'zaro taqqoslanishi qadimgi Baqtriya "ming shaharlar davlati" sifatida e'tirof etilganligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Xususan, Surxondaryo vohasidagi Qiziltepa shahar xarobasi, Bolo Hisor, shuningdek, Shimoliy Afg'onistonda aniqlangan Balx shahri qoldiqlari qadimgi shaharsozlik madaniyatining yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari urbanizatsiya jarayonlari tabiiy-geografik omillar, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va xalqaro savdo yo'llarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda shakllanganligini ko'rsatadi³. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar

- tarixiy-qiyosiy usul;
- tarixiy-tahliliy usul;
- manbashunoslik usuli;
- arxeologik materiallarni kompleks tahlil qilish usuli;

² **Rtveladze E.V.** *Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 112–118.

³ **Asqarov A.** *Eng qadimgi davlatlar va ilk shahar madaniyati*. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 58–64.

- ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o'rganish usuli.

Mazkur usullar qadimgi davr urbanizatsiya jarayonlarining shakllanish omillarini ilmiy asosda yoritish, Janubiy O'zbekiston hududidagi ilk shaharlarning rivojlanish bosqichlarini aniqlash hamda qadimgi Baqtriyaning Markaziy Osiyo tarixidagi o'rnini xolis baholash imkonini berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qadimgi davrda Janubiy O'zbekiston hududida urbanizatsiya jarayonlari tabiiy-geografik omillar, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi hamda siyosiy boshqaruv tizimining shakllanishi bilan uzviy bog'liq holda kechgan. Tahlil qilingan tarixiy va arxeologik manbalar Baqtriya hududi Markaziy Osiyodagi dastlabki yirik urbanistik markazlardan biri bo'lganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Surxon, Balxob, Vaxsh, Panj va Qashqadaryo vohalarida sug'orish tizimlarining rivojlanishi aholining o'troq turmush tarziga o'tishiga, doimiy manzilgohlarning kengayishiga hamda ilk shahar markazlarining vujudga kelishiga zamin yaratgan. Yozma manbalarda Baqtriyaning "ming shaharlar davlati" sifatida e'tirof etilishi ham ushbu hududda urbanizatsiya jarayonlari yuqori bosqichga yetganini ko'rsatadi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalari Qiziltepa, Bandixon, Talashqon, Sho'rtepa va boshqa yodgorliklarning nafaqat mudofaa istehkomlari, balki rivojlangan xo'jalik va hunarmandchilik markazlari bo'lganligini ko'rsatmoqda. Ushbu manzilgohlarda aniqlangan turar joylar, qal'a devorlari, mehnat qurollari, kulolchilik buyumlari hamda metallga ishlov berish izlari shahar hayotining ancha taraqqiy etganidan dalolat beradi. Ayniqsa, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning rivojlanishi oziq-ovqat zaxirasini ko'paytirib, hunarmandchilik va savdo-sotiqning kengayishiga xizmat qilgan. Bu esa shaharlarning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlab, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuviga olib kelgan⁴. Shuningdek, tadqiqot davomida Baqtriyaning So'g'diyona, Xorazm, Marg'iyona hamda qo'shni davlatlar bilan olib borgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari

⁴ Sagdullayev A.S., Mavlonov O., Mahkamov Sh. **O'zbekiston tarixi (Qadimgi davr)**. – Toshkent: Universitet, 2019. – B. 28–34.

urbanizatsiya jarayonlarining muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Savdo yo'llarining kesishgan hududida joylashganligi, tabiiy resurslarga boyligi hamda hunarmandchilik mahsulotlarining yuqori sifati Baqtriya shaharlarining mintaqadagi nufuzini oshirgan. Yozma manbalar va arxeologik topilmalar o'zaro solishtirilganda, qadimgi shaharlarning rivojlanishi faqat siyosiy markaz sifatida emas, balki iqtisodiy, madaniy va harbiy markaz sifatida ham shakllanganligi yaqqol namoyon bo'ladi⁵.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Janubiy O'zbekiston hududida urbanizatsiya jarayonlari miloddan avvalgi I ming yillik boshlaridayoq yuqori bosqichga ko'tarilganligini tasdiqlaydi. Baqtriya hududida shakllangan shaharlar tizimi keyingi davrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining rivojlanishiga mustahkam zamin yaratgan. Tarixiy yozma manbalar hamda arxeologik tadqiqotlarning o'zaro uyg'unligi qadimgi Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari izchil va uzluksiz rivojlanganligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Janubiy O'zbekiston hududida qadimgi davr urbanizatsiya jarayonlari tabiiy-geografik sharoit, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning kengayishi hamda siyosiy boshqaruv tizimining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Baqtriya hududi Markaziy Osiyoda ilk shahar madaniyati va davlatchilik an'analari shakllangan muhim tarixiy markazlardan biri hisoblanadi. Qiziltepa, Bandixon, Sho'rtepa va boshqa arxeologik yodgorliklar, shuningdek, "Avesto", antik mualliflar asarlari hamda arxeologik tadqiqotlar qadimgi shaharlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot darajasini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Daryo vohalarida shakllangan sug'orish tizimlari esa shaharlarning barqaror rivojlanishi va aholining o'troq hayot tarziga o'tishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Shu bois, Janubiy O'zbekistonda qadimgi urbanizatsiya jarayonlarini kompleks ravishda o'rganish nafaqat mintaqa tarixini chuqurroq anglash, balki

⁵ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. **O'zbekiston tarixi. 10-sinf darsligi.** – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – B. 28–34.

O'zbekiston hududida ilk davlatchilik va shaharsozlik taraqqiyoti bosqichlarini ilmiy asosda yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarov A.A. **O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi.** – Toshkent: Sharq, 2015. – 320 b.
2. Asqarov A.A. **O'zbekiston davlatchiligi tarixi.** – Toshkent: Fan, 2018. – 352 b.
3. Ochildiyev F.B. **Tarixiy o'lkashunoslik.** O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020. – 216 b.
4. Rtveladze E.V. **Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi.** – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 288 b.
5. Sagdullayev A.S., Mavlonov O., Mahkamov Sh. **O'zbekiston tarixi (Qadimgi davr).** – Toshkent: Universitet, 2019. – 304 b.
6. **O'zbekiston tarixi. 10-sinf.** Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.
7. **O'zbekiston tarixi. 11-sinf.** Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 176 b.
8. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. Elektron kutubxona va ilmiy resurslar bazasi. O'zbekiston Milliy kutubxonasi
9. O'zbekiston Milliy kutubxonasi. Elektron katalog va raqamli kutubxona. Elektron kutubxona bazasi
10. "Urbanizatsiya" O'zbek Vikipediyasi